



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARING INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha talim metodikasi "

kafedrasi professori p.f.n. Sh.A.Sadikova

Nizomiy nomidagi TDPU doktaranti L.A.Abdusabirova

Annotatsiya: Mavzu maktabgacha yoshdagi bolalarning integrativ yondashuvi asosida kasbiy kreativligini rivojlantirish mezonlari xakida suz borgan.

Tayanch iboralar; integratsiya yondashuv kasb, kretivlik, bola, taraqqiyot, mezon, ijtimoiy.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mavjud imkoniyatlarni aholining ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni asta sekinlik bilan yechishga qaratdi. Ayniqsa, yoshlarga g'amho'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Yoshlardagi shijoat va intilishni alohida pedagogik muammo sifatida o'rganish esa ularni hayotga tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M .Mirzeyovning «Bugungi kunda Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, farovon hayotga erishish, halqaro maydonda munosib o'rin egallashdek ezgu maqsadlarga yetish yo'lida biz tayanchmiz»¹ degan so'zları hozirgi yoshlarga bo'lgan cheksiz hurmat va e'tibor belgisidir.

2021 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M .Mirzeyov tomonidan «Obod turmush yili» deb e'lon qilindi va mamlakatimiz oila mustahkamligi, farzandlar kamoli, barkamol avlodning kelajagi uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida qobiliyatli yoshlarni aniqlash, ularga ta'lim-ta'lim tarbiya berish va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilla boshladи. Qobiliyatli yoshlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qullab-quvvatlash, ularni ijodiy faoliyatga rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan «Umid», «Ulug'bek» va «Iste'dod» jamg'armalari «Nihol» va «Zulfiya» mukofoti tanlovlari anna shu e'tiborning yorqin ko'rinishidir. Bunday ko'rik-tanlovlar ming-minglab yosh iste'dod egalarini kashf etayotgan

¹ «Маърифат» газеткаси 2088 йил 5-январь, №1.



Vatanimiz ravnaqidagi yutuqlar hisoblanadi Mazkur jamg‘arma va ko‘rik-tanlovlarning asosiy yo‘nalishlari ana shu e’tiborning yorqin ko‘rinishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasbiy qobiliyatning namoyon bo‘lishi ular tomonidan kasbiy faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishda ham o‘ziga hos ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ijodiy qobiliyatli bola ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonini o‘zgacha bir ko‘tarinkilik asosida tashkil etishiga erisha oladi. Qobiliyatilik o‘quv mashg‘ulotlari ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlarni noa’nanaviy shakl, metod va vositalar yordamida uyushtirishga yordam beradi. Shuningdek, bolalarni ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga, ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlarda ixtiyoriy qatnashishga, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishga rag‘batlantiriladi.

Birinchi Prezidentimizning «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» nomli asarida ta’kidlaganidek, «Vatanimizning kelajagi, halqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak»² degan so‘zlarni yoshlарimiz taqdiriga befarq bo‘lmaslik va ularni hayot yo‘llariga chiqib olishiga amaliy yordam berib borishimizni taqozo qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya fanida shaxs iqtidori, qobiliyatilik darjasи, qobiliyatli maqsadli rivojlantirish masalalarini tadqiq etishga kirishildi. N.S.Leytes, M.Karne, V.S.Blum, B.Klark, J.Uitmor, L.Termen kabilar tomonidan qobiliyatilik va uning darajalarini belgilovchi mezonlarining ishlab chiqilishi, shuningdek qobiliyatli shaxslarning o‘ziga xos psixologik sifatlarining tadkiq etilishi hamda ular bilan munosabatni to‘g‘ri tashkil etish yuzasidan tavsiyalarning ilgari surilishi nafaqat soha rivojini ta’minlab qolmay balki, qobiliyatli shaxslarning «cheksiz imkoniyatlari» dan samarali foydalanish mumkinligi ko‘rsatib berdi.

Manbalarda «qobiliyat», «iqtidor», «iste’dod», va «salohiyat» tushunchalarning garchi yagona negiziga ega bo‘lsa-da, biroq turli darajadagi xususiyatlarni ifodalashi alohida ta’kidlab o‘tiladi. Jumladan, «shaxsning muayan faoliyati yuzasidan layoqati va uning ishni muvaffaqiyatli bajarishidagi o‘ziga xos imkoniyatlarni ifodalovchi ruxiy hususiyatlar», «shaxsning ma’lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik hususiyatlar» sifatida e’tirof etiladi.

² Каримов И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч» Тошкент: Маънавият, 2008 – Б.муқовада



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarini kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat samaradorligini quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- Maktabgacha talim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilganligi;
- kasbiy qobiliyatli bolalarni aniqlash va saralash maksadida psixologik xizmatni tashkil etilayotganligi;
- Ijodiy qobiliyatli bolalarning ichki imkoniyatlarini tula ro‘yobga chiqarish maqsadida ularni muayyan guruhlarga biriktirish asosida tabaqlashtirilgan ta’limning joriy etilganligi;
- Saralangan bolalar faoliyati ustidan psixologik-pedagogik nazoratni o‘rnatish orqali ular ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini tahlil etib borayotganligi;
- Ijodiy qobiliyatli bolalar erishgan yutuqlar qo‘lami va darajasi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning integrativ yondashuv asosida kasbiy kreativligini rivojlantirish shu mezonlar asosida olib borilsa , yunaltirilsa sifat va samadorlik oshadi , kasblarga nisbatan kizikish uygotadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Sadikova, S., & Azamatova, D. (2022). PEDAGOGICAL INNOVATION CLUSTER OF ACTIVITY OF CENTERS IN PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(7), 1138-1143.
2. Nasreddinova, K., & Sadikova, S. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN IN A BILINGUAL ENVIRONMENT. *Science and innovation*, 1(B7), 1440-1444.
3. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44, 1777-1784.
4. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44, 1777-1784.
5. Sodiqova, S., & Yakubova, Z. (2022). O ‘QUV MASHG ‘ULOTLARINING TALABALARINI IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDAGI O ‘RNI. *Science and innovation*, 1(B7), 855-859.



6. Sadikova, S., & Sultanmuratova, Y. (2022). THE IMPORTANCE OF TEACHING STREET SAFETY TO CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Science and innovation*, 1(B7), 1519-1521.
7. Sadikova, S., & Abdusabirova, L. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT TURLARI VA MAZMUNI. *Science and innovation*, 1(B8), 760-764.
8. Sadikova, S., & Azamatova, D. (2022). MAKTABGACHA TALIMDA MARKAZLAR FAOLIYATINING PEDAGOGIK INNOVATIONS KLASERI. *Science and innovation*, 1(B7), 1138-1143.
9. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). Maktabgacha yoshdag'i bolalarni nutq o 'stirish orqali mustaqil fikrlashga o 'rgatish. In International conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
10. Бабаева Д. Р., Джумашева Г. К. (2022). ПРОБУЖДЕНИЕ ИНТЕРЕСА У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К КНИГЕ. ЖУРНАЛ ТЕКУЩИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПЕДАГОГИКИ, 3(02), 42-46.
11. Razzaqovna, B. D. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILAR BILAN PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VOSITALARI. QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES, 1(1), 28-31.
12. Бабаева Д. Р., Ещанова Г. О. и Мадрахимова Н. Я. (2023). ТЕХНОЛОГИЯ ОЗНАКОМЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С КНИГАМИ СКАЗОК. Европейский международный журнал педагогики, 3(05), 74-79.
13. Babayeva, D., & G'Afforova, D. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MARKAZLAR FAOLIYATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1152-1156.
14. Бабаева Д. Р., Джумашева Г. К., Алеуова Р. С. и Наджмиддина Г. (2022). Формирование патриотических представлений у детей школьного возраста. Журнал фармацевтических исследований с отрицательными результатами, 1537-1541.